

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60110500 – Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat
ta’lim yo‘nalishining**

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1	60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2	60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	5
1.2.2.	60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3.	60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	6
2.	60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umummadaniy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
3.	60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....	8
3.1.	60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlariga qo'yiladigan umumiy talablar.....	8
3.2.	60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	12
	Kelishuv varag'i	

1. 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60110500 – *Boshlang'ich ta'lim* yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110500 – Boshlang'ich ta'lim ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talablari asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

– 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtixon komissiyalari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta'lim yo'nalishi (tarkibi)ning bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy faoliyatlari tavsifi.

1.2.1. 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi – umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi maqomida faoliyat olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- umumiy o'rta ta'limda boshlang'ich sinflarni o'qitish jarayoni, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlari;

- fan va ta'limning nazariy masalalari; o'qitish metodikasi;

- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish hamda tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayoni;

60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishining bakalavr yo'nalishi *Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda o'qishni davom ettirishi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim (ikkinchi mutaxassislik)da davom ettirishi mumkin.

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

- davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

1.2.3. 60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- Ilmiy-pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma‘naviy-ma‘rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;

1.2.4. 60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

– umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida “Ona tili va o‘qish savodxonligi”, “O‘qish”, “Matematika”, “Texnologiya”, Geografiya tarkibidagi: “Tabiiy fanlar”, “Tarbiya”, (Informatika, tasviriy san‘at, musiqa) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida kasbiy fanlaridan o‘rnatilgan tartibda dars berish;

– umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari muassasalarida o‘qituvchi (tashkilotchi) bo‘lib ishlash;

– ta‘lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

– mos ta‘lim yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash;

- **o‘quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va O‘D larining maqsadlariga muvofiq o‘quv reja ishlab chiqish, o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko‘ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o‘quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- **ta‘lim samaradorligini ta‘minlash:** dars maqsadlariga ko‘ra o‘quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to‘g‘ri rejalashtirish, ta‘lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra darsni tashkil etish va ta‘lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o‘quvchilarning ta‘limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o‘qitishning faol usullaridan foydalanish, o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish, o‘quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etisho‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalaridan foydalanish, o‘quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash

imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

- **o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini taxlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish

- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoiadalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- **hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish:** o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyati:

– boshlang'ich ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

– boshlang'ich ta'lim fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiiq etish;

– boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– ma‘lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni tizimli tahlil qilish;

– boshlang‘ich ta‘limga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

– ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlash;

– mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma‘naviyat va ma‘rifat markazlarida ishlash;

– boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va texnologiyasi, o‘qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Bitiruvchilar kasbiy qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin oliy, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan turdosh (sohaga mos) fanlarni o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida:

– o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

– globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta‘siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

– ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga yangi taraqqiyot strategiyasi g‘oyasini singdirish;

– o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

– milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

– pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta‘lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– jamoada ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

– fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lish.

– pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta‘lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– jamoada ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lish.

2. **60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

2.1. Bitiruvchi quyidagi **umummadaniy kompetensiyalarga** ega bo'lishi lozim:

2.1. **Umumiy kompetensiyalar:**

- Shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va ob'ektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

2.2. **Kasbiy kompetensiyalar:**

- o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;
- ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;
- tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;
- inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;
- turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;
- psixologik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallaganlik.

- turli yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi, muloqoti, faoliyatini tashxis etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga egalik; O'qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta'limning turli bosqichlarida o'qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati; Kasbiy faoliyatda bola huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati

- ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tashi hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida taxsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda xaftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunda amaliyot o'tkaziladi.

2.3.1. 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Kunduzgi ta'lim shaklida ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4680	156
Tanlov fanlari	1440	48
Malakaviy amaliyot	1080	36
jami	7200	240

2.3.2. 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	semestri
	Majburiy blok	4680	156	
UmPsix108	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
OTO'SUO'M106	Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi	660	22	2-6
MUO'M106	Matematika va uni o'qitish metodikasi	690	23	2-6
O'EYT105	O'zbekistonning eng yangi tarixi	150	5	1
MSVAX104	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
MK 108	Mutaxassislikka kirish	300	10	1,2
BTTar106	Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani	150	5	1
O'RT107	Amaliy o'zbek (rus) tili.	180	6	2
FALMAD104	Falsafa	120	4	1
InkT.GP204	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	3
PED208	Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi	240	8	3,4
TexTUO'M208	Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi	240	8	3,4
Din304	Dinshunoslik	120	4	4
TFNM308	Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi	240	8	5,6
BA407	Bolalar adabiyoti	270	9	7,8
ENMS402	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	240	8	7,8
BTIVI405	Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya	120	4	7
PedMah404	Pedagogik maxorat	150	5	7
U24188479	Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	120	4	8
JTNVM403	Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi	120	4	8
	Tanlov fanlar	1440	48	
	Amaliyotlar	1080	36	
	JAMI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya:

Pedagog. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 372.22

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, kasb, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri, maktab amaliyoti, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy ish faoliyati, mutaxassislik va ixtisoslik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, innovatsiya, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQLILGAN:
Toshkent davlat pedagogika universiteti



A. Kirgizbayev
A. Kirgizbayev

» *ijod*
M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

direktori

Sh. Yakubov
Sh. Yakubov



2023-yil « *26* »

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi

Respublika ta'lim markazi

direktori *Sh. Sattorov*
Sh. Sattorov

2023-yil « *26* » *ijod*

M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

rektori

Sh. Sharipov
Sh. Sharipov

2023-yil « *26* »

M.O'.



Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b.

A. Qalandarov
A. Qalandarov

2023-yil « *26* » *ijod*

M.O'.



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogikauniversiteti
60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari
o‘rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“26” *iyul* 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Respublika ta‘lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birgalikda TDPUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-yuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son hamda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan (hisob raqami 43) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi “«Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar» O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 35-2021-son buyrug‘i hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta‘lim markazi direktori

Sh.Sattarov

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

Sh.Sharipov

Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

A.Kirgizbayev